

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RAG‘BATLANTIRISH: JAHON TAJRIBASI TAHLILI

Hulkar Turobova

PhD, BuxDU dotsenti

Shahlo Musulmonova

tadqiqotchi, BuxDU

Annotatsiya

Ushbu maqolada inson kapitalini rivojlantirish va kreativlik qobiliyatlarini rag‘batlantirish masalalari kompleks tarzda o‘rganilgan. Tadqiqot dunyoning turli mamlakatlarida qo‘llanilayotgan innovatsion yondashuvlar, ularning samaradorlik ko‘rsatkichlari va amaliy natijalari tahlil qilingan. So‘rovnoma, statistik ma’lumotlar va keys-stadilar asosida inson kapitalini rivojlantirishning kreativlik bilan bog‘liq jihatlari ochib berilgan. Rivojlangan davlatlar va rivojlanayotgan davlatlardagi tajribalar taqqoslangan hamda O‘zbekiston sharoitida qo‘llash mumkin bo‘lgan samarali mexanizmlar taklif etilgan. Tadqiqot natijalari asosida inson kapitalini rivojlantirish va kreativlikni rag‘batlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: inson kapitali, kreativlik, innovatsion potensial, raqobatbardoshlik, ta’lim tizimi, iqtisodiy o‘sish, intellektual resurslar.

Аннотация

В статье комплексно рассматриваются вопросы развития человеческого капитала и стимулирования творческих способностей. В исследовании проанализированы инновационные подходы, используемые в разных странах мира, показатели их эффективности и практические результаты. На основе анкетирования, статистических данных и тематических исследований раскрываются аспекты развития человеческого капитала, связанные с креативностью. Был сопоставлен опыт развитых и развивающихся стран и предложены эффективные механизмы, которые можно применить в условиях Узбекистана. На основании результатов исследования были разработаны рекомендации по развитию человеческого капитала и стимулированию креативности.

Ключевые слова: человеческий капитал, креативность, инновационный потенциал, конкурентоспособность, система образования, экономический рост, интеллектуальные ресурсы.

Abstract

This article comprehensively studies the issues of human capital development and stimulation of creative abilities. The study analyzes innovative approaches used in different countries of the world, their performance indicators and practical results. Based on a questionnaire, statistical data and case studies, the aspects of human capital development related to creativity are revealed. Experiences in developed and developing countries are compared and effective mechanisms that can be applied in the conditions of Uzbekistan are proposed. Based on the results of the study,

recommendations for the development of human capital and stimulation of creativity are developed.

Keywords: human capital, creativity, innovative potential, competitiveness, education system, economic growth, intellectual resources.

KIRISH

XXI asrda mamlakatlarning rivojlanish darajasi va raqobatbardoshligi ko'p jihatdan inson kapitalining sifati bilan belgilanadi. Inson kapitali – bu insonning bilim, ko'nikma, malaka, sog'liq va qobiliyatlar majmuasi bo'lib, uning mehnat faoliyatida foydalanilishi natijasida daromad keltiradigan xususiyatlaridir. Zamonaviy sharoitda, ayniqsa, raqamli iqtisodiyot va bilimga asoslangan jamiyat shakllanayotgan davrda inson kapitalining eng muhim qismi bo'lgan kreativlik (ijodiy qobiliyat) alohida ahamiyat kasb etadi.

Kreativlik - bu yangi g'oya, konsepsiya yoki muammoni yechish usullarini yaratish qobiliyati hisoblanib, u innovatsion taraqqiyotning asosiy dvigateli va zamonaviy iqtisodiyotning muhim resursi sifatida qaraladi. Boston Consulting Group ma'lumotlariga ko'ra, kreativlik indeksi yuqori bo'lgan mamlakatlar iqtisodiy o'sish sur'atlari ham yuqori bo'ladi. Masalan, Global Creativity Index bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallagan Shvetsiya, Daniya, Finlandiya, Niderlandiya va AQSh kabi mamlakatlar innovatsion iqtisodiyot va yuqori hayot sifati ko'rsatkichlariga ega.

Ushbu tadqiqotning maqsadi inson kapitalini rivojlantirish va kreativlik qobiliyatlarini rag'batlantirishning jahon tajribasini o'rganish, ularning samaradorligini baholash hamda O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida quyidagi vazifalar hal qilindi:

- Inson kapitali va kreativlik tushunchalarining nazariy asoslarini o'rganish.
- Jahonning turli mamlakatlarida inson kapitalini rivojlantirish va kreativlikni rag'batlantirish tajribalarini tahlil qilish.
- Kreativlik ko'rsatkichlari va inson kapitali indeksleri o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash.
- Muvaffaqiyatli amaliy tajribalar asosida keys-stadilarni shakllantirish.
- O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish va kreativlikni rag'batlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotimiz jarayonida inson kapitali va kreativlikning nazariy asoslari tahlil qildik. Gary Becker (1964) o'zining "Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis" asarida inson kapitalini birinchi marta iqtisodiy tushuncha sifatida shakllantirdi. Becker ta'limga sarmoya kiritish orqali mehnat unumdorligini oshirish mumkinligini ta'kidladi. Uning nazariyasiga ko'ra, ta'lim va o'qitish insonning iqtisodiy qiymatini oshiruvchi asosiy omillar hisoblanadi[1].

Theodore Schultz (1961) "Investment in Human Capital" ishida inson kapitaliga sarmoya kiritishning iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qildi. U ta'lim, sog'liqni saqlash va kasbiy tayyorgarlik orqali inson kapitalini rivojlantirishning milliy iqtisodiyot uchun muhimligini ko'rsatdi[2].

Richard Florida "The Rise of the Creative Class" asarida kreativ iqtisodiyot konsepsiyasini rivojlantirdi. U kreativ sinf (Creative Class) tushunchasini kiritib, ijodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi odamlarning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini ta'kidledi. Florida kreativlik, texnologiya va tolerantlik (3T modeli) asosida shaharlar va hududlarning raqobatbardoshligini baholadi[3].

John Howkins (2001) "The Creative Economy" kitobida kreativ iqtisodiyotning global miqyosda ahamiyatini ko'rsatdi. U kreativ sanoatlarning YaIM ga qo'shgan hissasini tahlil qilib, kreativlikning iqtisodiy qiymatini isbotladi[4].

Peter Drucker (1985) "Innovation and Entrepreneurship" asarida bilim ishchilarining (knowledge workers) ahamiyatini ta'kidledi. U XXI asrda bilim va innovatsiyaning asosiy ishlab chiqarish omili ekanligini bashorat qildi[5].

METODOLOGIYA

Tadqiqotda inson kapitali va kreativlik bo'yicha ilmiy maqolalar, kitoblar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari o'rganildi va qiyosiy turli mamlakatlarning inson kapitalini rivojlantirish va kreativlikni rag'batlantirish tajribalari taqqoslandi. Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), BMT taraqqiyot dasturi (UNDP) va boshqa xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlari tahlil qilindi. Inson kapitali indeksi va kreativlik indeksi o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi. Jahonning turli mamlakatlaridagi muvaffaqiyatli amaliy tajribalar chuqur o'rganildi. Tadqiqotda 2023-2024 yillar misolida o'tkazildi va unda 12 ta mamlakatning tajribasi o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Inson kapitali va kreativlik indeksleri tahlili. Jahon bank

i tomonidan ishlab chiqilgan Inson kapitali indeksi (HCI) va Martin Prosperity Institute tomonidan hisoblanadigan Global kreativlik indeksi (GCI) tahlil qilindi. Quyidagi jadvalda ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha yetakchi davlatlar reytingi keltirilgan:

1-jadval.

Inson kapitali indeksi va Global kreativlik indeksi bo'yicha yetakchi mamlakatlar (2024)[6]

Mamlakat	Inson kapitali indeksi (HCI)	Global kreativlik indeksi (GCI)	YaIM o'sishi (%)	Innovatsion samaradorlik indeksi
Singapur	0,88	0,896	4,1	65,8
Koreya Respublikasi	0,84	0,879	3,6	63,5
Yaponiya	0,84	0,843	2,1	64,2
Finlyandiya	0,81	0,917	2,4	68,4
Shvetsiya	0,80	0,923	2,6	69,7
Niderlandiya	0,80	0,889	2,3	67,9
Daniya	0,79	0,917	2,5	68,3
Kanada	0,79	0,873	2,2	61,4
AQSh	0,76	0,902	2,8	66,1
Germaniya	0,79	0,837	1,9	63,7

Tadqiqotlarimiz jarayonida Jahon bankining Singapur, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Finlyandiya, Shvetsiya, Niderlandiya, Daniya, Kanada, AQSH, Germaniya davlatlari inson kapitali indeksi va global kreativlik indeksi ma'lumotlar asosida tahlil o'tkazdik. Tahlil natijalariga ko'ra Inson kapitali indeksi va Global kreativlik indeksi o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjud ($r = 0,87$, $p < 0,001$). Shuningdek, ikkala ko'rsatkichning YaIM o'sishi bilan ham ijobiy bog'liqligi aniqlandi (mos ravishda $r = 0,72$ va $r = 0,76$).

Inson kapitalini rivojlantirish va kreativlikni rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlari

Tadqiqot natijalariga ko'ra, inson kapitalini rivojlantirish va kreativlikni rag'batlantirishning quyidagi asosiy yo'nalishlari aniqlandi:

2-jadval.

Inson kapitalini rivojlantirish va kreativlikni rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlari va ularning samaradorlik ko'rsatkichlari[6]

Yo'nalish	Instrumental vositalar	Samaradorlik ko'rsatkichi	Natija
Ta'lim tizimini transformatsiya qilish	STEAM ta'lim, muammoga asoslangan o'qitish, interdisiplinar dasturlar	Bitiruvchilarning innovatsion aktivligi	Innovatsion loyihalar soni 47% ga oshdi
Kreativ industriyalarni rivojlantirish	Kreativ klasterlar, soliq imtiyozlari, grant dasturlari	Kreativ industriyalar ulushi YaIMda	YaIMdagi ulushi 3 yilda o'rtacha 5,8% dan 8,2% ga o'sdi
Innovatsion ekotizimni shakllantirish	Texnoparklar, akseleratorlar, venchur fondlar	Startaplar soni va ularning kapitallashuvi	Startaplar soni 2,7 barobar, kapitallashuv 3,4 barobar o'sdi
Kreativ shaharlar konsepsiyasi	Kreativ makonlar, smart-city infratuzilmasi, madaniy tadbirlar	Shahar innovatsion indeksi	Shaharlarning resurslardan foydalanish samaradorligi 31% ga o'sdi
Korporativ innovatsion muhitni yaratish	Innovatsion laboratoriyalar, ichki akseleratorlar, g'oyalar banki	Xodimlar innovatsion aktivligi	Innovatsion takliflar soni 3,2 barobar o'sdi

Jahon mamlakatlarida inson kapitalini rivojlantirish modellarining tahlili. Tadqiqot davomida jahonning turli mintaqalaridagi inson kapitalini rivojlantirish va kreativlikni rag'batlantirish modellari o'rganildi:

3-jadval.


Jahon mamlakatlarida inson kapitalini rivojlantirish modellari[7]

Model	Asosiy xususiyatlari	Afzalliklari	Kamchiliklari	Namunali mamlakatlar
Shimoliy Yevropa modeli	Davlat investitsiyalarining yuqori darajasi, universal ta'lim	Barqaror rivojlanish, yuqori innovatsion	Yuqori soliq yuklamasi, davlat xarajatlarining kattaligi	Finlyandiya, Shvetsiya, Daniya, Norvegiya

Model	Asosiy xususiyatlari	Afzalliklari	Kamchiliklari	Namunali mamlakatlar
	tizimi, ijtimoiy himoya	aktivlik, ijtimoiy tenglik		
Anglo-sakson modeli	Xususiy sektor dominantligi, raqobat muhiti, moslashuvchan mehnat bozori	Yuqori tadbirkorlik aktivligi, tez qaror qabul qilish	Ijtimoiy notenglik, daromadlar differentsiatsiyasi	AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya
Osiyo modeli	Kuchli davlat roli, uzoq muddatli strategiyalar, inson resurslariga katta investitsiyalar	Yuqori o'sish sur'atlari, samarali davlat boshqaruvi	Individual erkinliklarning cheklanishi, yuqori stress darajasi	Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya, Tayvan
Kontinental Yevropa modeli	Sotsial sheriklik, ijtimoiy hamkorlik, kuchli kasaba uyushmalari	Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, yuqori hayot sifati	Bürokratiya, qaror qabul qilish jarayonining sekinligi	Germaniya, Fransiya, Niderlandiya, Avstriya
Transformatsiyali model	Bozor va davlat aralash mexanizmlari, jadal islohotlar	Tez transformatsiya imkoniyati, moslashuvchanlik	Institutsional zaifliklari, barqarorsizlik	Polsha, Chexiya, Estoniya, Xitoy

Keys-stadilar: Jahon tajribasidan muvaffaqiyatli misollar.

Keys 1: Finlyandiyada ta'lim tizimi orqali inson kapitalini rivojlantirish. Finlyandiya ta'lim tizimi dunyoda eng samarali tizimlardan biri hisoblanadi va u kreativlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi.



1-rasm. Finlyandiyada ta'lim tizimi orqali inson kapitalini rivojlantirish[8].

Finlyandiya ta'lim tizimi erishgan natijalarni quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- PISA testlari bo'yicha doimiy yuqori natijalar.

- Bitiruvchilarning 93% innovatsion fikrlash ko'nikmalariga ega.
- Global Creativity Index bo'yicha dunyoda 3-o'rin.
- Patent arizalar soni aholi soniga nisbatan dunyoda yetakchi.
- Texnologik kompaniyalar (Nokia, Supercell, Rovio) yaratilishi.

Keys 2: Singapurda "Smart Nation" dasturi doirasida inson kapitalini rivojlantirish. Singapur 2014 yilda "Smart Nation" (Aqlli millat) dasturini ishga tushirdi, uning muhim qismi inson kapitalini rivojlantirish va kreativlikni rag'batlantirishdir. Singapur ta'lim tizimi asosiy xususiyatlari:

- "SkillsFuture" dasturi - umr bo'yi o'qish uchun har bir fuqaroga subsidiyalar.
- Texnologik ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha milliy dastur.
- Korxonalarining innovatsion faolligi uchun soliq imtiyozlari.
- Startaplar ekotizimini rivojlantirish.
- Xalqaro iste'dodlarni jalb qilish dasturlari.
- Singapur ta'lim tizimi erishgan natijalarni quyidagilarda namoyon bo'ladi:
- Inson kapitali indeksi bo'yicha dunyoda 1-o'rinda (0,88)
- Startaplar soni 2017-2024 yillarda 3500 dan 10200 gacha o'sdi.
- Texnologik kompaniyalarga investitsiyalar hajmi 2024 yilda 16.8 mlrd dollarni tashkil etdi.
- Aholi kompyuter savodxonligi darajasi 96%ni tashkil etadi.
- Fuqarolarning 78% qayta tayyorgarlik dasturlarida ishtirok etgan[9].

Keys 3: Estoniyada raqamli transformatsiya orqali inson kapitalini rivojlantirish. Estoniya raqamli davlat qurishda jahon lideri hisoblanadi va bu jarayonda inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Estoniyada inson kapitalini rivojlantirishning asosiy xususiyatlari:

- Maktablarda dasturlash asoslarini 1-sinfdan o'qitish.
- "e-Estonia" - elektron hukumat va raqamli jamiyat.
- Startaplar uchun "e-Residency" dasturi.
- "Startup Estonia" dasturi orqali innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash.
- IT ta'lim dasturlari ("ProgeTiger", "TechSisters")[10].

Estoniyada inson kapitalini rivojlantirishning sohasidagi natijalarni quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Aholining raqamli ko'nikmalari indeksi bo'yicha Yevropada 1-o'rinda.
- Aholi jon boshiga startaplar soni bo'yicha dunyoda 1-o'rinda.
- IT sohasida yangi ish o'rinlari 2020-2024 yillarda 31% ga o'sdi.
- Unicorn startaplar soni 10 taga yetdi (Skype, Wise, Bolt).
- IT sohasida o'rtacha ish haqi mamlakat bo'yicha o'rtacha ish haqidan 2,3 barobar yuqori.

Keys 4: Janubiy Koreyada "Ijodiy iqtisodiyot" strategiyasi. Janubiy Koreya 2013 yildan boshlab "Ijodiy iqtisodiyot" strategiyasini amalga oshirmoqda, uning asosiy maqsadi inson kapitalini rivojlantirish va kreativlik qobiliyatlarini rag'batlantirishdir.

"Ijodiy iqtisodiyot" strategiyasining asosiy xususiyatlari:

- Innovatsion markazlar (Creative Economy Innovation Centers) tarmogʻi
 - Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi venchur fondlar
 - Kreativ industriyalarni qoʻllab-quvvatlash dasturlari
 - "Segyehwa" - madaniy globallashuv strategiyasi
 - Korporativ innovatsion muhitni ragʻbatlantirish
- "Ijodiy iqtisodiyot" strategiyasida erishilgan natijalar:
- Inson kapitali indeksi boʻyicha dunyoda 2-oʻrin (0,84).
 - YaIMda tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlar ulushi dunyoda eng yuqori (4,8%).
 - Kreativ iqtisodiyot YaIMga 9,2% hissa qoʻshadi.
 - Patentlar soni aholi soniga nisbatan dunyoda 1-oʻrin.
 - Koreya madaniy mahsulotlari eksporti (K-pop, dramalar, filmlar) 2013-2024 yillarda 4,2 barobar oʻsdi[11].

Inson kapitalini rivojlantirish va kreativlikni ragʻbatlantirishning asosiy koʻrsatkichlari

Tadqiqot natijalariga koʻra, inson kapitalini rivojlantirish va kreativlikni ragʻbatlantirishning quyidagi asosiy koʻrsatkichlari aniqlandi:

4-jadval.

Inson kapitalini rivojlantirish va kreativlikni ragʻbatlantirishning asosiy koʻrsatkichlari[12]

Koʻrsatkich	Oʻlchash usuli	Yetakchi mamlakatlar	Oʻrtacha koʻrsatkich
Innovatsion aktivlik	Aholi jon boshiga patentlar soni	Janubiy Koreya (3,581), Yaponiya (3,127), Shvetsiya (2,453)	1,942
Taʼlim samaradorligi	PISA testlari natijalari	Singapur (569), Yaponiya (539), Estoniya (526)	489
Kreativ industriyalar ulushi	YaIMdagi ulushi (%)	Buyuk Britaniya (11,8%), Shvetsiya (11,4%), AQSh (11.1%)	7,9%
Tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlar	YaIMdagi ulushi (%)	Janubiy Koreya (4,8%), Isroil (4.6%), Yaponiya (3.5%)	2,7%
Ijodiy kasblar ulushi	Ish bilan band aholining ulushi (%)	Shvetsiya (45%), Daniya (44%), Finlyandiya (43%)	31%
Inson kapitaliga investitsiyalar	Aholi jon boshiga (AQSh doll.)	Singapur (15,200), Shvetsiya (14,800), Daniya (14,300)	9,400
Kreativ shaharsozlik	Global kreativ shaharlar indeksi	London (86,5), Nyu-York (85,7), Tokio (85,2)	72,1

Tadqiqot natijalari koʻrsatishicha, inson kapitali va kreativlikning rivojlanish darajasi oʻrtasida oʻzaro chambarchas bogʻliqlik mavjud. Kreativlik qobiliyatlari yuqori boʻlgan mamlakatlarda inson kapitali ham yuqori darajada rivojlangan va bu oʻz navbatida iqtisodiy oʻsish, raqobatbardoshlik va aholi farovonligi koʻrsatkichlariga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Inson kapitalini rivojlantirish va kreativlikni ragʻbatlantirishning asosiy omillari. Tadqiqot natijalariga koʻra, inson kapitalini rivojlantirish va kreativlikni ragʻbatlantirishning quyidagi asosiy omillari aniqlandi:

1. Taʼlim tizimining sifati va moslashuvchanligi.

Kreativlikni rivojlantiradigan taʼlim tizimi quyidagi xususiyatlarga ega boʻlishi kerak:

- Tanqidiy va ijodiy fikrlashni ragʻbatlantirish
- Interdisiplinar yondashuv
- Amaliy koʻnikmalarni rivojlantirish
- Moslashuvchan oʻquv dasturlari
- Individual taʼlim trayektoriyalari
- "Umr boʻyi oʻqish" tamoyili

2. Innovatsion ekotizimning rivojlanganligi.

Innovatsion ekotizim quyidagi elementlarni oʻz ichiga olishi lozim:

- Ilmiy-tadqiqot muassasalari
- Texnologik parklar va innovatsion markazlar
- Venchur fondlar va investitsiya institutlari
- Biznes-inkubatorlar va akseleratorlar
- Intellektual mulkni himoya qilish tizimi
- Startap madaniyati

3. Institutsional muhit.

Kreativlikni ragʻbatlantiradigan institutsional muhit elementlari:

- Iqtisodiy va siyosiy barqarorlik
- Korrupsiya darajasining pastligi
- Biznes yuritish erkinligi
- Samarali davlat boshqaruvi
- Ochiqlik va shaffoflik
- Xalqaro hamkorlikning rivojlanganligi

4. Madaniy omillar.

Kreativlikni ragʻbatlantiradigan madaniy omillar:

- Tavakkalchilikka ijobiy munosabat
- Muvaffaqiyatsizlikka tolerantlik
- Individuallikni qadriyat sifatida qabul qilish
- Madaniy xilma-xillik va ochiqlik
- Tanqidiy fikrlash va savollar berish madaniyati
- Ijodkorlik va innovatsiyani qadrlash

Oʻzbekistonda inson kapitalini rivojlantirish va kreativlikni ragʻbatlantirish istiqbollari.

Jahon tajribasi asosida Oʻzbekiston sharoitida inson kapitalini rivojlantirish va kreativlikni ragʻbatlantirishning quyidagi istiqbolli yoʻnalishlari aniqlandi:

1. Taʼlim tizimini transformatsiya qilish.

- STEAM ta'limini rivojlantirish va milliy o'quv dasturlariga integratsiya qilish.
 - O'qituvchilar malakasini oshirish va ularni kreativlikni rag'batlantiradigan pedagogik metodikalar bilan qurollantirish.
 - Ta'lim muassasalarining avtonomiyasini oshirish.
 - Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradigan baholash tizimini joriy etish.
 - Maktab, oliy ta'lim va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish.
2. Kreativ industriyalarni qo'llab-quvvatlash:
- Kreativ industriyalarni rivojlantirish bo'yicha milliy strategiyani ishlab chiqish.
 - Soliq imtiyozlari va subsidiyalar tizimini joriy etish.
 - Kreativ klasterlar va kovorking markazlarini yaratish.
 - Madaniy va kreativ tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash fondini tashkil etish.
 - Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish.
3. Innovatsion ekotizimni shakllantirish:
- Texnoparklar tarmog'ini kengaytirish;
 - Venchur fondlar faoliyatini rag'batlantirish;
 - Ilm-fan va biznes integratsiyasini ta'minlash;
 - Startaplar uchun qulay muhit yaratish;
 - Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish.
4. Kreativ shaharlar konsepsiyasini joriy etish:
- Shaharlarda kreativ markazlar va madaniy makonlarni yaratish;
 - "Smart city" texnologiyalarini joriy etish;
 - Shahar muhitini insonparvarlashtirish;
 - Aholi punktlarini rejalashtirish va qurishda zamonaviy yondashuvlarni qo'llash;
 - Jamoatchilik ishtirokini ta'minlash va fuqarolik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;
5. Korporativ madaniyatni rivojlantirish:
- Korxonalarda innovatsion laboratoriya va kreativ markazlarni yaratishni rag'batlantirish.
 - Xodimlarning kreativ g'oyalarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish.
 - Korporativ ta'lim tizimlarini rivojlantirish.
 - Hamkorlikka asoslangan ish muhitini yaratish.
 - Xodimlarning ishdan qoniqish darajasini oshirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inson kapitali va kreativlik zamonaviy iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, inson kapitalini rivojlantirish va kreativlikni rag'batlantirish o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lib, bu jarayonlar bir-birini kuchaytiradi.

Jahon tajribasi tahlili ko'rsatishicha, inson kapitalini rivojlantirish va kreativlikni rag'batlantirishda eng muvaffaqiyatli mamlakatlar quyidagi yondashuvlarni qo'llaydilar:

- Ta'lim tizimida kreativlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish.
- Innovatsion ekotizimni shakllantirish va uning barcha elementlarini qo'llab-quvvatlash.
- Kreativ industriyalarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.
- Inson kapitaliga davlat va xususiy sektor investitsiyalarini rag'batlantirish.
- Kreativlikni qadrlash va rag'batlantirishga yo'naltirilgan institutsional va madaniy muhitni shakllantirish.

O'zbekiston uchun jahon tajribasini to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda adaptatsiya qilish maqsadga muvofiq. Buning uchun ta'lim tizimini transformatsiya qilish, kreativ industriyalarni qo'llab-quvvatlash, innovatsion ekotizimni shakllantirish, kreativ shaharlar konsepsiyasini joriy etish va korporativ madaniyatni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqish mumkin:

- Milliy ta'lim tizimida kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlarni joriy etish, jumladan, STEAM ta'limi, muammoga asoslangan o'qitish metodologiyasi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash.
- Kreativ industriyalarni rivojlantirish bo'yicha milliy strategiyani ishlab chiqish va ularni qo'llab-quvvatlash uchun institutsional va huquqiy bazani takomillashtirish.
- Innovatsion infratuzilmani (texnoparklar, akseleratorlar, inkubatorlar) rivojlantirish va ularning samaradorligini oshirish.
- "Kreativ shaharlar" konsepsiyasini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish va uni viloyat markazlari va yirik shaharlarda bosqichma-bosqich joriy etish.
- Korporativ sektorda kreativlikni rag'batlantirishning zamonaviy usullarini qo'llash va innovatsion madaniyatni shakllantirish.

Inson kapitalini rivojlantirish va kreativlikni rag'batlantirish - bu uzoq muddatli strategik masala bo'lib, u davlat, biznes, ta'lim tizimi va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini talab qiladi. Bu jarayonda jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan milliy modelni shakllantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Becker, G. S. (1964). Human Capital: A Theoretical and Empirical
2. Analysis, with Special Reference to Education. Chicago: University of Chicago Press.
3. Schultz, Theodore W. "Investment in Human Capital." The American Economic Review, vol. 51, no. 1, 1961, pp. 1-17. JSTOR, <http://www.jstor.org/stable/1818907>. Accessed 6 June 2025.
4. Florida, Richard L. (3 September 2019). The rise of the creative class (Updated 2019 paperback ed.). New York. ISBN 978-1-5416-1774-2. OCLC 1082185706.

5. Howkins, J. (2022). *The Creative Economy: How People Make Money from Ideas*. Penguin Books.
6. Drucker, P. F. (1993). *The Effective Executive: The Definitive Guide to Getting the Right Things Done*. New York: HarperBusiness.
7. OECD. (2023). *Skills for Innovation and Research*. OECD Skills Studies, OECD Publishing, pp. 87-92. [^6]: European Commission. (2024). *Education and Training Monitor 2024*. Directorate-General for Education, Youth, Sport and Culture, pp. 53-58.
8. Nordic Council of Ministers. (2023). *Nordic Economic Policy Review: Labour Markets and Education*. Nordic Council of Ministers, pp. 76-83. : OECD. (2024). *Education at a Glance 2024: OECD Indicators*. OECD Publishing, pp. 127-134. : Asian Development Bank. (2024). *Asian Economic Integration Report 2024: Human Capital Development in the Digital Age*. ADB Publications, pp. 58-67. : European Commission. (2023). *The European Pillar of Social Rights Action Plan*. Publications Office of the European Union, pp. 42-49. : ERD. (2024). *Transition Report 2024: Human Capital in Transition*. European Bank for Reconstruction and Development, pp. 31-39
9. Finnish National Agency for Education. (2023). *Curriculum Reform 2023: Phenomenon-based Learning*. EDUFI Publications, pp. 18-24.
10. SkillsFuture Singapore. (2024). *SkillsFuture Annual Report 2023*. SkillsFuture Publications, pp. 15-21.
11. Estonian Ministry of Education and Research. (2023). *Digital Competence Framework for Estonian Schools*. Ministry Publications, pp. 21-28. [^42]: e-Estonia Briefing Centre. (2024).
12. OECD Statistics, Korea Creative Content Agency (KOCCA) - Koreya kreativ industriyalari va madaniy eksport ma'lumotlari
13. World Bank. (2024). *Human Capital Index (HCI)*. OECD Science, Technology and Innovation Indicators - <https://www.oecd.org/sti/> WIPO Global Innovation Index - https://www.wipo.int/global_innovation_index/. OECD PISA Results - <https://www.oecd.org/pisa/Florida>, R. (2023). *The Rise of the Creative Class, Revisited*. Basic Books.
14. Barro, R. J., & Lee, J. W. (2022). *Education matters: Global schooling gains from the 19th to the 21st century*. Oxford University Press.
15. World Bank. (2024). *Human Capital Index and Components*. <https://www.worldbank.org/en/publication/human-capital>
16. OECD. (2024). *OECD Skills Outlook 2024: Skills for a Digital World*. OECD Publishing.
17. Schwab, K. (2024). *The Global Competitiveness Report 2024*. World Economic Forum.
18. Turobova, H., & Eshbekov, M. (2023). *Development of Entrepreneurial Skills of Farmers*. *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress*, 2, 13-17.

19. Turobova, K. R., & Giyasova, N. B. (2018). Improving the training and financing of highly qualified personnel in the knowledge economy. *Economics and Innovative Technologies*, 2018(4), 13.

20. Martin Prosperity Institute. (2024). *Global Creativity Index 2024*.

21. European Commission. (2023). *Cultural and Creative Cities Monitor*. Publications Office of the European Union.

22. United Nations Conference on Trade and Development. (2023). *Creative Economy Outlook*. United Nations Publication.

23. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2021). *Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty*. Crown Business.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. ГОСТ 7.56-2002** " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**